

## DARS JARAYONIDA O'QITUVCHI NUTQIDAGI SO'ZLARNING O'QUVCHILAR ONGIGA TA'SIRI

**Ibrohimova Sevara,  
Nukus DPI 1-kurs magistranti**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada bugungi kunda metodika sohasidagi dolzarb mavzulardan biri hisoblangan o'qituvchining dars jarayonida foydalanadigan salbiy va ijobiy so'zlarning o'quvchilar ongiga, bolaning o'zi haqidagi bahosiga, uning kelajagiga bo'lgan ta'siri haqida so'z yuritiladi.*

**Tayanch so'zlar:** *ong, psixosomatika, ruhiyat, salbiylik.*

Insonning jamiyatga kerakli shaxs bo'lib yetishishida ta'lim sohasi katta ahamiyat kasb etadi. Maktab yillari davomida ularning esida qoladigan eng o'chmas xotiralardan biri bu ularning o'qituvchilarining har birining o'ziga xos o'qitish usulidir. Bu o'qitish jarayonida o'qituvchining o'zini tutishi, o'quvchilarga munosabati katta ahamiyatga egadir.

O'qituvchi darsga kirar ekan sinfda kamida 25 o'quvchiga dars beradi. Ularga o'z bilimini berishga, faniga doir tushunchalarni o'rgatishga harakat qiladi. Mana shu dars jarayonida har bir o'qituvchi o'z nutqida ishlatayotgan so'zlarining, aytayotgan ma'lumotlarining va o'quvchiga bildirayotgan munosabatining mana shu 25 o'quvchining ongiga 25 xil ta'sir qilishini anglagan holda so'zlardan mohirona tarzda foydalansa maqsadga yanada muvofiq bo'lar edi. Ya'ni, o'qituvchi darsda dars jarayoniga halaqit bergan o'quvchilarni tinchlantiraman deb ularning ongiga o'ta salbiy ta'sir qiluvchi so'zlarni o'zi bilmagan holda ishlatib qo'yishi ana shu yosh avlodning ongiga, kelajakda jamiyatda o'z o'rnini topishida qanchalar ta'sir qilishini bilarmikin? Yo'q, bizning jamiyatda "Eti sizniki, suyagi bizniki" degan naqlga amal qilaman deb, to'g'ri tarbiya beraman deb nutqida bor so'zlardan foydalanish orqali ta'lim beraman, tarbiya qilaman deb o'ylashadi.

O'zim ham shu kungachaolgan darslarim, guvoh bo'lgan jarayonlarimdan kelib chiqib, ko'pgina o'qituvchilarning doim bir-ikkita o'quvchining darsda faol bo'lishi bilan o'tadigan darslarda, boshqa o'quvchilarga nisbatan berilayotgan e'tiborsizliklarni ko'raverib, bu mavzuni yoritishga qaror qildim. Faol o'quvchilar bilan ovora o'qituvchi qolgan 20 o'quvchining kelajagi bilan qiziqarmikin? Xo'sh, o'sha ko'ngli oppoq qog'ozdek o'quvchilarning ko'nglichi, o'zlashtirishichi, xayolidan o'tayotgan fikrlarchi, ularning xuddiki "u sinfdoshim zo'r, meni esa hamma yomon ko'radi", yoki "ustozim faqat ularni yaxshi ko'radi, men qancha

*qo‘limni ko‘tarsam ham meni e‘tiborga olmaydi” yoki “bugun darsga bormayman ustozim yana urshadi” kabi jumlar. Yoki bola ongiga eng yomon ta‘sir qiladigan zarbalardan biri bu o‘qituvchi va ota-ona tomonidan solishtirish hisoblanib, “Botirov Samadovni qara qanaqa yaxshi bola, a‘lochi, darsdlarda doim faol, sanchi, “ikkichisan”, bu ketishda sendan hech kim chiqmaydi, ertaga ikki chelakni egasi bo‘lasan” qabildagi salbiy so‘zlarni aytsa, xuddiki u bola ham odam bo‘lib qoladigandek. Lekin, afsuski, unday emas. O‘quvchilarga kuniga 5 soat dars bo‘ladigan bo‘lsa, 5 ta o‘qituvchi 5 daqiqadan unga shunday so‘zlar aytib, uni ezsa, sizningcha u yaxshi tarafga o‘zgaradimi? Darsga qiziqmaydigan, tarbiyasi og‘ir bolalar sizningcha bekordan bekorga o‘zini shunday tutadimi? Yo‘q, ularga e‘tibor kerak. Ular sizdan o‘zini darsga befarq ko‘rsatish, turli qiliqlar qilish orqali “menga qarang, men ham borman, menga e‘tibor bering, menga e‘tibor kerak, uyda ota-onam menga e‘tibor bermaydi” deyayotgan bo‘ladi aslida. Chunki, u uyidagi nosog‘lom muhitdan charchagan holda shu yo‘lni tutish orqali sizdan e‘tibor kutadi. Buni anglamasdan, faqat bu vaziyatning yomon tarafini o‘ylayvermay, biroz masalaning bu tarafiga ham nazar tashlasak ko‘plab o‘quvchilarning kelajakdan yetuk kadr bo‘lib yetishishiga hissa qo‘shgan bo‘lar edik. U o‘quvchining uyida ota-onasi shug‘ullanmasa, ular ham uyda farzandini ursa, buyam yetmagandek oiladagi nosog‘lom muhitda o‘sayotgan bo‘lsa, buni ustiga siz ham uni ezsangiz, bunday avlodning ertangi kuni qanday bo‘ladi?*

*“Tarbiyaviy an‘analardagi «to‘siq» — ota-onalar oiladagi ilgarigi tarbiyaviy ta‘sir usullarini qo‘llaydilar, bolaning ruhiy rivojlanishi darajasini hisobga olmaydilar. Ular o‘z malakalarini oshirish ustida ishlamaydilar. Natijada bola bilan o‘rtalarida to‘siq paydo bo‘ladi, ular bir-birlarini tushuna olmaydilar” [1: 68].*

*Ertaga jamiyatda o‘z o‘rnini, biror kasbning boshini tuta olmagan paytda, hech kim shu bolani o‘qitganda ishlatgan salbiy so‘zlarini, “sen odam bo‘lmaysan”, “umringni oxirigacha bilimsiz o‘tasan” kabi aytgan so‘zlarining ruhiyatiga ta‘sir qilganini eslamaydi, o‘ylab ham ko‘rmaydi, “u bolalikdan shunday edi o‘zi, doim ustozlaridan dakki eshitardi” deb qo‘yaverishadi. Bu bilan qancha avlodning miyyasini zaharlayotganini bilishmaydi afsuski.*

*Bilasizmi, ko‘pchilik kasalliklarning kelib chiqishining faqat tashqi jismoniy sabablari emas, balki ichki ruhiyat bilan bog‘liq sabablari ham mavjud bo‘lib, bu sohani o‘rganuvchi fan psixosomatika fanidir. Kichkinagina bolakaylarning 1-2-sinfdanoq ko‘zoynak taqishini olaylik. Sizningcha, bu ularning hammasida hambu tug‘ma deb o‘ylaysizmi? Yo‘q, farzandlar oiladagi ota-ona janjallarini guvoh bo‘laverib, maktabda har kun o‘qituvchilarining qo‘pol muomalasini ko‘rib, qo‘rqib “ko‘rmay-ko‘rmay”, “bu vaziyatni ko‘rishdan qo‘rqaman, xohlamayman” deyishi*

ko'z qobiliyatining keskin pasayib ketishiga olib kelar ekan. Quloqlar ham xuddi shunday, bu dakkilarni, baqiriqlarni eshitmay deb eshitish qobiliyati yo'qolar ekan. Bu albatta achinarli holat.

Demak, o'quvchi ongiga dars davomida har bir o'qituvchining munosabati jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Dars so'nggida o'quvchilarni rag'batlantirish ham o'quvchi ruhiyatiga ta'sir qilar ekan. *"Botirov senga rag'bat yo'q kelasi darsga ham tayyorlanib kelmasang "ikki" olasan"*. Nahot, bundan charchamadik. O'sha-o'sha o'quvchilarni ezish, qo'rqitish. Axir, qachongacha o'quvchi qo'rqanidan darsga tayyorlanib keladi, qachongacha butun dars davomida qo'rquvda o'tiradi. Nahot, u shu fanga qiziqolmasa, nahot fanni o'rganolmasa. Uning o'rniga faqat dars o'ttimmi o'ttim deb tanaffus bo'lgandan oyoqni qo'lga olib chiqib ketavermasdan, darsdan tashqari shu o'quvchiga biroz vaqt ajratib asta-sekin uni ijobiy so'zlar bilan ruhiyatini ko'tarib: *"Botirov qani qaysi mavzuga tushunmading, darslarni bajarishingda seni qanday muammo qiynayapti, men senga ishonaman, sen juda yaxshi bolasan, seni hammamiz yaxshi ko'ramiz, hali sen kelajakda hammamiz faxrlanadigan inson bo'lasan, mana ko'rasan"* deb, dars jarayonida ham u o'quvchiga e'tiborni sal ko'proq qaratib, ozgina qilgan harakati uchun ham *"barakalla, Botirov bugun juda faolsan"* deb qo'yganingiz uning ongiga qanchalalar ijobiy ta'sir qilishini, ichida baxtga to'lib, ustoziga, shu fanga bo'lgan qiziqishi ortishini bilganingizda edi. Aslo salbiylik ishlatmasdingiz. Darsga yaxshi qatnashmaydigan, biz tarbiyasi og'ir deb ataydigan bolalarning ham boshqa bolalardek beg'ubor, pok qalbi bor. Bilasizmi, aksincha, mana shunday o'quvchilardan katta talant egalari chiqadi aslida. Darsda o'qituvchining so'zlari har qanday darsga qiziqmay o'tirgan o'quvchini ham qiziqtirib yubora oladigan bo'lishi kerak, shunda hech qanday "ikkichi"yu allaqanday "tarbiyasi og'ir bolalar" degan tushunchalar ham kamayar edi.

Sizda savol tug'ilishi tabiiy, shunda o'quvchilarga faqat yaxshi so'z gapirishimiz kerakmi deb? Ha! Faqat salbiy so'zlarni aytaverib biror natija olmagandan ko'ra ijobiy so'zlardan foydalanib katta o'zgarishlarga sabab bo'lgan yaxshi menimcha. Agar pedagog o'quvchilar psixologiyasini yaxshi bilsa, uni e'tiborga olsa, o'quvchining qiziqishlari va e'tiqodini, yoshiga xos xususiyatlarini, ilgari egallagan tajribasini inobatga olsa, uning istiqboli va qiyinchiliklari bilan hisoblashgan holda ish tutadigan bo'lsa, ma'naviy anglashilmovchiliklarni bartaraf etish mumkin [1: 41].

Ta'lim sohasini yanada rivojlantirish, psixologik sog'lom kadrlarni jamiyatga yetkazib berishda asosiy o'rinlardan birini maktab hayoti egallashini anglagan holda dars jarayonlarimizda bugungi kun talabiga javob bera oladigan mutaxassis

bo'lishga harakat qilaylik. Haligacha davom etayotgan o'quvchilarning ruhiyatini ezish holatlariga chek qo'yaylik.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mahmudova M. Muloqot psixologiyasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Turon-iqbol, 2006.
2. Ibrahim, S., & Aydin, S. (2021). In alisher navoi's friend" hayratul-abror" singing of ethical issues. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 2(01), 23-25.
3. Kamalovich, A. H. (2020). Mythological basis of unusual images in turkish peoples. *Academica: An international multidisciplinary research journal*, 10(12), 678-682.
4. Yusupova, G. A., Khudayorova, M. T., Buranova, S. M., Atiyazov, S. J., & Allanazarova, A. (2021). Formation of linguistic competencies in the uzbek language in future teachers. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 335-341.
5. Худаярова, М. Т., & Хасанова, А. Н. (2017). Этнопедагогические воззрения каракалпаков важнейший источник семейного воспитания и социальной адаптации детей. In Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования (pp. 77-82).